

INVESTITSİYALARNI JALB QILISH

*Sharifboyeva Nilufar Shavkat qizi**Zarmed Universiteti Iqtisod yo'nalishi 3-kurs talabasi*

Annotatsiya: investitsiyalarni jalb qilish iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biridir. Ushbu jarayon mamlakatlar va mintaqalar uchun yangi imkoniyatlar, ish o'rinlari va innovatsiyalarni keltirib chiqaradi. Investitsiyalarni jalb qilishning asosiy jihatlari ko'rib chiqiladi. Investitsiyalarni jalb qilish jarayonining kompleks yondashuvini va uning iqtisodiy o'sishdagi ahamiyatini ta'kidlaydi. Mamlakatlar uchun bu jarayon nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, balki ijtimoiy rivojlanishni ham qo'llab-quvvatlash imkonini beradi.

Kalit so'zlar: investitsiya, iqtisodiy rivojlanish, xorijiy investitsiyalar, mahalliy investitsiyalar, infratuzilma, innovatsiyalar, moliyalashtirish usullari, investitsiya strategiyalari, ijtimoiy rivojlanish, boshqaruv tizimi, investitsion muhit.

Аннотация: привлечение инвестиций является одним из важных факторов экономического развития. Этот процесс создает новые возможности, рабочие места и инновации для стран и регионов. Рассмотрены основные аспекты привлечения инвестиций. Подчеркивается комплексный подход процесса привлечения инвестиций и его важность для экономического роста. Для стран этот процесс позволяет не только обеспечить экономическую стабильность, но и поддержать социальное развитие.

Ключевые слова: инвестиции, экономическое развитие, иностранные инвестиции, внутренние инвестиции, инфраструктура, инновации, методы финансирования, инвестиционные стратегии, социальное развитие, система управления, инвестиционная среда.

Abstract: investment attraction is one of the important factors of economic development. This process creates new opportunities, jobs and innovation for countries and regions. The main aspects of attracting investments are considered. It emphasizes the comprehensive approach of the process of attracting investments and its importance for economic growth. For countries, this process allows not only to ensure economic stability, but also to support social development.

Key words: investment, economic development, foreign investments, domestic investments, infrastructure, innovations, financing methods, investment strategies, social development, management system, investment environment.

Jahonda globallashuv jarayonlarining tezlashib borishi hozirgi davrda mamlakatlar iqtisodiyotida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish imkoniyatini oshirishni taqozga etmoqda. "To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya

mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda eng asosiy omillardan hisoblanadi” . Dunyo mamlakatlari ilmiy tadqiqotlarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishda davlat mulkinging va davlat ulushi bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi jamiyatlarning ishlab chiqarish maydonlari va ob‘ektlaridan samarali foydalanish, investitsiyalarni faol jalb etish uchun qulay sharoitlarni shakllantirish, yangi raqobatbardosh ishlab chiqarishlarni va kichik korxonalarni rivojlantirishni yanada qo‘llab-quvvatlash masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Mamlaktimiz iqtisodiy o‘shishga erishishida investitsiyalarni faol jalb qilishning ahamiyati beqiyos. Hudud-larga mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali bir qator afzalliklarga erishishimiz mumkin. Birinchidan, iqtisodiyotning turli tarmoqlariga investitsiyalarni keng jalb qilish startap loyihalarini, xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantiradi. Buning natijasida esa qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratilib, mamlakat miqyosida aholining ish bilan bandligi ortadi, aholi turmush farovonligi yaxshilanadi. Ikkinchidan, mamlakat iqtisodiyotining ustuvor tarmoqlariga investitsiyalarni kiritish orqali korxonalarining import o‘rnini bosuvchi, eksportbop tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish imkoniyatini oshirish mumkin. Bu esa mamlakat aholisiga hamyonbop va shu bilan birga sifatli, jahon standartlariga to‘la javob bera oladigan tovar va xizmatlardan foydalanish imkoniyatini tug‘diradi. Uchinchidan, investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlarida yangi turdagi raqobatbardosh, eksportga mo‘ljallangan tovar va xizmatlar ishlab chiqarilishiga zamin yaratadi. Bu esa mamlakat yalpi ichki mahsulot hajmining o‘shishiga, davlatning tashqi savdoda dunyo mamlakatlari orasida o‘z o‘rni bo‘lishiga xizmat qiladi. To‘rtinchidan, investitsiyalardan samarali foydalanish orqali korxonalarining moddiy-texnik bazasi yangilanadi, ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalar joriy etiladi. Bu o‘z-o‘zidan korxonalaridagi mehnat unumdorligi oshishiga, mahsulot tannarxi pasayishiga xizmat qiladi. Xorijiy olimlar investitsiyalarni jalb qilish va uning samaradorligi masalalarini o‘rganishda muhim hissalar qo‘shgan. Ularning tadqiqotlari, investitsiya jarayonini yaxshiroq tushunish va rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan nazariy va amaliy asoslarni taqdim etadi. Nobel mukofoti sovrindosi Robert Solow (Solow, R. 1956) o‘zining iqtisodiy o‘shish modeli bilan investitsiyalarning ishlab chiqarishga ta‘sirini o‘rganib chiqdi. Uning modeli, kapital to‘plami va texnologik rivojlanish orqali iqtisodiy o‘shish qanday sodir bo‘lishini ko‘rsatadi. Georgiy Aschauer (Aschauer, A. 1989) o‘z tadqiqotlarida infratuzilmaning iqtisodiy o‘shishga ta‘sirini o‘rganadi.. Aschauerning tahlillari, investitsiyalarning o‘shishga ta‘siri infratuzilma rivojlanishiga bog‘liq ekanligini ochib beradi. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda davlat siyosatining roli haqida Hines (Hines, J. R. 1996) va McKenzie (McKenzie, D. 2013) kabi olimlar ko‘plab muhim jihatlarni ko‘rsatadi. Hines, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda davlatning soliq siyosati va iqtisodiy qoidalari qanday ta‘sir ko‘rsatishini o‘rganadi. Investitsiyalarni jalb qilish — iqtisodiy o‘shish va

rivojlanish uchun muhim jarayonlardan biridir. Har qanday davlat yoki korxonalar o'z faoliyatini kengaytirish, yangilanishlar kiritish va raqobatbardoshligini oshirish uchun investitsiyalarni o'ziga jalb etish zarur. Biroq, investitsiya jalb qilishning samaradorligi ko'plab omillarga bog'liq. Investitsiya turlari. Investitsiyalarni jalb qilishda bir nechta asosiy turlar mavjud: Sof investitsiyalar: mablag'larni to'g'ridan-to'g'ri loyiha yoki korxonalariga qo'yish. Qo'shimcha investitsiyalar: mavjud loyihalarga qo'shimcha mablag'lar kiritish. Davlat investitsiyalari: davlat tomonidan amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari. "2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"ning mantiqiy davomi bo'lgan "O'zbekiston–2030" strategiyasida ham investitsiyaviy faoliyat masalalariga alohida to'xtalib o'tilgan. Ushbu strategiyaga asosan investitsiyalarni keng jalb qilish maqsadida 2030-yilgacha quyidagi vazifalarni amalga oshirish belgilangan:

- iqtisodiyotda transformatsiya va institutsional islohotlarni izchil davom ettirish, mamlakatda qulay investitsion va ishbilarmonlik muhitini ta'minlash;
- asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmining yillik o'rtacha 7 foiz atrofida o'sishini ta'minlash;
- mamlakatimizda 250 milliard dollarlik investitsiyalarni o'zlashtirish, jumladan 110 milliard dollar xorijiy investitsiyalar va 30 milliard dollar davlat-xususiy sheriklik doirasidagi investitsiyalarni jalb qilish;
- umumiy qiymati 150 milliard dollarlik 500 dan ziyod strategik ahamiyatga ega bo'lgan texnologik va infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirish;
- hududlarning investitsion reytingini yuritish, har bir hududning imkoniyatlaridan kelib chiqib, uning investorlar uchun jozibadorligini yanada oshirish;
- barcha iqtisodiy zonalarda zarur infratuzilmadan (yo'l, elektr energiyasi, ichimlik suvi va oqova suv tizimi) uzluksiz foydalanish imkoniyatlarini yaratish.

Xorijiy investitsiyalar — chet el investorlari tomonidan yuqori darajada daromad olish, samaraga erishish maqsadida mutloq boshqa davlat iqtisodiyotining, tadbirkorlik va boshqa faoliyatlariga safarbar etadigan barcha mulkiy, moliyaviy, intellektual boyliklaridir. Chet el investitsiyalari ichki investitsiyalardan farqli holda tashqi moliyalashtirish manbaiga kiradi. Ular milliy iqtisodiyotga chetdan, ularning kelishini rag'batlantirgan holda jalb qilinadi. „Chet el investitsiyalari to'g'risida“gi Qonunga ko'ra O'zbekiston Respublikasida chet ellik investorlar quyidagilar bo'lishi mumkin: chet el davlatlari, chet el davlatlarining ma'muriy yoki hududiy organlari; davlatlararo bitimlar yoki boshqa shartnomalarga muvofiq tashkil topgan yoki xalqaro ommaviy huquq subyektlari bo'lgan xalqaro tashkilotlar; chet el davlatlarining qonun hujjatlariga muvofiq tashkil topgan va faoliyat ko'rsatib kelayotgan yuridik shaxslar boshqa har qanday shirkatlarlar, tashkilotlar yoki uyushmalar; chet el davlati fuqarolari bo'lmish jismoniy shaxslar, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar va chet ellarda doimiy yashaydigan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari.

Bugungi kunda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning bir qancha shakllari mavjud: ulush qo‘shib qatnashishi orqali qo‘shma korxonalarni tashkil etish; 100 % mol-mulk xorijiy investorga tegishli bo‘lgan xorijiy korxonalarni tashkil etish; yirik xorijiy kompaniya va firmalarning sho‘ba korxonalari va filiallarini tashkil etish; konsessiya va lizing shartnomalari tuzish; tenderlar e‘lon qilish; erkin iqtisodiy hududlar tashkil etish; moliyaviy aktivlarni sotish va sotib olish. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun davlatlar bir qator qulay sharoitlarni taqdim etishi lozim. Bunga quyidagilar kiradi:

- Soliq imtiyozlari: xorijiy investorlar uchun soliq imtiyozlari va boshqa moliyaviy rag‘batlar taqdim etish, ularning mamlakatga investitsiya kiritish istagini oshiradi.

- Huquqiy muhit: investorlarning huquqlarini himoya qiluvchi ishonchli va shaffof huquqiy tizim yaratish zarur. Bu, xorijiy investorlarning xavfsizligini ta‘minlaydi.

- Infratuzilma: transport, energetika va aloqa sohasidagi infratuzilmani rivojlantirish, xorijiy investorlar uchun qulay sharoitlarni yaratadi.

- Boshqaruv va ma‘muriyat: investitsiya jarayonini soddalashtirish va tezlashtirish maqsadida samarali boshqaruv tizimini joriy etish.

Startup” so‘zi inglizcha startup – “startup” tushunchasidan kelib chiqadi va u endigina yaratilgan yoki hali yaratilish jarayonida bo‘lgan kompaniyani anglatadi. Bunda o‘sha kompaniyaning rivojlantirish va ilgari surish lozim bo‘lgan qandaydir biznes g‘oyasi mavjudligi, ammo uning yaratuvchilari hozircha bozor tadqiqotlari va uni amalga oshirish uchun mablag‘ qidirish bilan bandligi nazarda tutiladi. Ba‘zan iste‘molchilarga innovatsion tovar va xizmatlarni taklif qilmoqchi, ammo hozirda mutanosib biznes-texnologiyalar va moliyaviy ko‘mak izlash jarayonida bo‘lgan kompaniyalar startaplar deb ataladi. Bunday kompaniyalarning kelajagi ancha mavhum ko‘rinadi. Ko‘pincha startap mohiyati innovatsion g‘oyalarni ilgari surish yoki eski g‘oyani takomillashtirishdan iborat bo‘ladi. Shu sababli startaplar hatto eng kuchli korporatsiyalar bilan ham raqobatlasha oladi, chunki ular ko‘p hollarda innovatsiyalarni joriy etishga o‘zini urintirmaydi va allaqachon o‘z o‘rnini topib olgan tovar va xizmatlarni taklif qilishda davom etishadi. Shuning uchun ham, har qanday startapni mavhumlik tomon sakrashga qiyoslash mumkin. mahalliy startaplar va kichik bizneslarni moliyalashtirish investitsiyalarni jalb qilishda muhim rol o‘ynaydi. Bunga quyidagilar kiradi:

- Moliya institutlari: banklar, investitsiya fondlari va boshqa moliya institutlari orqali kichik bizneslarga kreditlar va grantlar taqdim etish.

- Biznes inkubatorlari: yosh tadbirkorlar uchun biznes inkubatorlari va akseleratorlar tashkil etish, ularga zarur resurslar va bilimlar berish.

- Raqamli platformalar: Crowdfunding (omma mablag‘lari) platformalarini rivojlantirish orqali kichik bizneslarga investitsiya jalb qilish imkoniyatlarini oshirish.
- Tarmoq va hamkorlik: mahalliy tadbirkorlar o‘rtasida tarmoq tuzish va hamkorlikni rivojlantirish, bu esa yangi g‘oyalar va investitsiyalarni keltirib chiqaradi.

Investitsiyalarni jalb qilish jarayoni kompleks yondashuvni talab qiladi. Xorijiy investitsiyalar uchun qulay sharoitlar yaratish, mahalliy startap va kichik bizneslarni moliyalashtirish hamda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish orqali mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish mumkin. Bu yo‘nalishda amalga oshiriladigan harakatlar nafaqat iqtisodiy o‘shishni ta‘minlaydi, balki ijtimoiy barqarorlikni ham mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyot va havolalar

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 25 dekabrda «Investitsiya va investitsiya faoliyati to‘g‘risida» gi O‘RQ-598-son Qonuni, 3-modda.
2. A.Sh.Bekmurodov. Xorijiy investitsiyalar. – Toshkent: Iqtisodiyot. – T. – O‘quv qo‘llanma.
3. A.B.Vaxobov. Xorijiy investitsiyalar. – Toshkent: Moliya, 2010. – T. – O‘quv qo‘llanma.
4. A.S.Azizov. (2021) To‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jalb qilishda moliyaviy iqtisodiy va mamlakat xatarlarini kamaytirish. Iqt. fan. bo‘y. fals. dokt. (PhD) diss. Avtoref. – Toshkent: 2021. – 11 b.
5. G.M.Galeeva and E.N.Kadeeva. Problems of attracting foreign direct investment into the regional economy. Journal of Physics: Conference Series, 1730(2021) 012118, 2020. – P. 8.
6. TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH – IQTISODIY TARAQQIYOT GAROVI .Sitorabonu Bahodir qizi Rahmonova
7. IQTISODIYOTGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISH VA ULARNING BARQAROR IQTISODIY O‘SISHDAGI ROLI Mamadiyorova Dilorom Ravshon qizi.
8. <https://www.researchgate.net/publication/378501629> Iqtisodiyotga investitsiyalar ni jalb qilish va ularning barqaror iqtisodiy o'sishdagi roli
9. <https://inacademy.uz/index.php/zdif/article/download/38472/24560/40427>
10. <https://zenodo.org/records/7643665>